

INGLIZ TILIDAGI BA'ZI HAZILLARNING MUVAFFAQIYATSIZ BO'LIH SABABLARI

Narzikulova Rayhona

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu tezisda ingliz tilidagi ayrim hazillarning chet ellik tinglovchilar tomonidan idrok etilmasligi sabablari tahlil qilinadi. Tadqiqotda lingvomadaniy, pragmatik va kontekstual omillar, shuningdek tarjima jarayonidagi yo'qotishlar ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar ingliz tilini o'qitish jarayonida hazil va madaniy kontekstga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, hazil, madaniy kontekst, tarjima, pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, idiomalar, kinoya.*

Hazil — har bir xalqning madaniy o'ziga xosligini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy hodisa. Ingliz tilidagi hazil esa bir necha asrlar davomida shakllangan o'ziga xos uslublarga ega bo'lib, ularda kinoya, kamtarona o'zini past baholash (self-deprecation), so'z o'yini (pun) va kutilmagan absurd vaziyatlar muhim o'rin tutadi¹. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan ko'plab talabalar uchun bunday hazillar ko'pincha tushunarsiz qoladi yoki kulgi keltirib chiqarmaydi. Bu holatning sabablarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi — ingliz tilidagi ba'zi hazillarning chet ellik (xususan, o'zbek) tinglovchilar tomonidan idrok etilmasligining asosiy sabablarini aniqlash va ushbu masalaning til o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatib berishdir.

¹Fox K. Watching the English: The Hidden Rules of English Behaviour. — London: Hodder & Stoughton, 2014. — P. 65.

Tadqiqotda tavsiflash, qiyosiy tahlil va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Material sifatida zamonaviy ingliz tilidagi sitkomlar (Friends, The Office, Sherlock), stend-ap chiqishlar va internet meme-larida uchraydigan hazillar tanlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi hazillarning muvaffaqiyatsiz bo'lishining bir necha asosiy sabablari mavjud. Birinchi guruh sabablar — lingvistik xarakterga ega. Bularga so'z o'yini (wordplay) asosida qurilgan hazillar kiradi. Masalan, "Time flies like an arrow; fruit flies like a banana" iborasidagi hazil "flies" so'zining ikki ma'nosiga (uchadi / pashshalar) asoslangan. Bunday hazillarning tarjimasi deyarli mumkin emas, chunki ular tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq.

Ikkinchi guruh — madaniy fonga oid sabablar. Ingliz hazilining katta qismi britan madaniyati, tarixi, sportiga (kriket, regbi), ob-havoga oid stereotiplarga, mashhur teleko'rsatuvlarga va siyosiy hayotga ishora qiladi. Masalan, "It's not cricket" iborasi adolatsiz xatti-harakatni anglatadi, lekin bu o'yin haqida tushunchasi bo'lmagan tinglovchi uchun hazilning mohiyati yashirin qoladi.

Uchinchi guruh — pragmatik sabablar. Britan kinoyasi (irony) ko'pincha kutilgan ma'noning aksini ifodalaydi. "Lovely weather, isn't it?" iborasi jala yoqqan paytda aytilsa, kinoya hosil qiladi. Lekin bu pragmatik holat o'zbek madaniyatida bevosita ifodalanmasligi sababli, chet ellik tinglovchi gapni so'zma-so'z tushunib, hazilni payqamasligi mumkin. Grais'ning samimiy maksimalari

(cooperative maxims) buzilgan paytdagi yashirin ma'noni anglash uchun maxsus pragmatik kompetensiya talab etiladi².

To'rtinchi guruh — idiomatik sabablar. Ingliz tilidagi ko'plab hazillar idiomalarning so'zma-so'z va majoziy ma'nolari o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan. "To pull someone's leg", "to kick the bucket", "to let the cat out of the bag" kabi iboralar so'zma-so'z tarjima qilinganda kulgili tasvirlar hosil qiladi, lekin asl ma'nosi yashirin qoladi. Tinglovchi idioma mavjudligini bilmasa, hazil yo'qoladi.

Beshinchi guruh — milliy mentalitet bilan bog'liq sabablar. Britanlar uchun o'ziga past baho berish (self-deprecation) kamtarlik belgisi hisoblansa, ba'zi madaniyatlarda bu g'ayritabiiy yoki noqulay holat sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, britan hazilida ko'p uchraydigan "dry humour" — ya'ni hech qanday emotsional ifodasiz aytilgan kinoyali gap — ba'zi tinglovchilar tomonidan jiddiy fikr sifatida qabul qilinadi.

Olingan natijalar ingliz tilini o'qitish jarayonida hazilning lingvomadaniy jihatlariga alohida e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi. Ingliz tilini ona tili sifatida emas, chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun hazil va idiomatik iboralar bilan ishlashning samarali usullaridan biri — autentik materiallar (sitkom, stend-ap, mem) yordamida pragmatik kompetensiyani shakllantirishdir. Talabalarga nafaqat hazilning tarjimasi, balki uning madaniy va pragmatik fonini ham tushuntirish lozim.

²Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. — New York: Academic Press, 1975. — P. 45.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi ayrim hazillarning chet ellik tinglovchilar tomonidan idrok etilmasligi tasodifiy hodisa emas, balki lingvistik, madaniy, pragmatik va idiomatik omillarning birgalikdagi natijasidir. Ushbu omillarni hisobga olgan holda o'qitish metodikasini takomillashtirish chet tilini chuqur va madaniyatlararo kontekstda o'rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Fox K. Watching the English: The Hidden Rules of English Behaviour. — London: Hodder & Stoughton, 2014. — 624 p.
- Attardo S. Humorous Texts: A Semantic and Pragmatic Analysis. — Berlin: Mouton de Gruyter, 2001. — 238 p.
- Raskin V. Semantic Mechanisms of Humor. — Dordrecht: D. Reidel, 1985. — 284 p.
- Chiaro D. The Language of Jokes: Analysing Verbal Play. — London: Routledge, 1992. — 129 p.
- Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. — New York: Academic Press, 1975. — P. 41–58.
- Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. — 320 b.
- Maslova V. A. Lingvokulturologiya. — Moskva: Akademiya, 2001. — 208 b.